

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV BOSQICHIDA AMALGA OSHIRILADIGAN PROTSESSUAL VA TERGOV HARAKATLARINING TAVSIFI

Ibadullayev Islom Boboxon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati" yo'nalishi
bo'yicha magistratura tinglovchisi

E-mail: islom.ibadullayev@gmail.com

Tel: +99893 038-75-57

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397801>

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq tergovga qadar tekshiruv davrida o'tkaziladigan protsessual va tergov harakatlarining tavsifi, ularni qanday holatlarda o'tkazish zarurligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, taftish tayinlash.

DESCRIPTION OF PROCEDURAL AND INVESTIGATIVE ACTIONS PERFORMED AT THE PRE-INVESTIGATION STAGE

Abstract. This article describes the procedural and investigative actions carried out during the pre-investigation check in accordance with the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan, and in what cases they need to be carried out.

Key words: detention, personal search and seizure, inspection of the crime scene, appointment of an examination, appointment of an audit.

ОПИСАНИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ И СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ, ПРОИЗВОДИМЫХ НА СТАДИИ ДОЗНАНИЯ

Аннотация. В данной статье дана характеристика процессуально-следственных действий, проводимых в период доследственная проверка в соответствии с уголовно-процессуальным законодательством Республики Узбекистан, и в каких случаях их необходимо произвести.

Ключевые слова: задержание, личный обыск и выемка, осмотр места происшествия, назначение экспертизы, назначение ревизии.

Maqolamizni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi 2-qismiga e'tiborimizni qaratish bilan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur normada tergovga qadar tekshiruv o'tkazilishi mumkin bo'lgan o'n sutkalik yoki uzaytirilgan muddat hisoblanmish bir oylik muddat ichida quyidagi protsessual va tergov harakatlarini o'tkazish mumkin:

- qo'shimcha hujjatlar talab qilib olinishi;
- tushuntirishlar talab qilib olinishi;
- shaxs ushlab turilishi;
- JPKning 162-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo'yish amalga oshirilishi;
- hodisa sodir bo'lgan joy ko'zdan kechirilishi;
- ekspertiza o'tkazilishi;
- taftish tayinlanishi;

- tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berilishi.

Normaning yana bir asosiy talablaridan biri shuki, tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi.

Yuqorida sanalganlardan birinchisi qo'shimcha hujjatlar talab qilib olinishi asosan davlat sirlarini oshkor qilish, davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, qalabki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish kabi va boshqa jinoyat turlari yuzasidan o'tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv jarayonida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- ekspertiza tekshiruvini o'tkazish uchun qiyosiy namuna sifatida tekshirish maqsadida;
- ma'lumotlarni solishtirish uchun;
- faktik ma'lumotlarga oydinlik kiritish uchun;
- taftish o'tkazish uchun statistik ma'lumot sifatida foydalanish maqsadida va hokazo.

Tergovga qadar tekshiruv davrida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qo'shimcha hujjatlarni Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92-moddalari talablari asosida rasmiylashtirilgan bayonnoma asosida mazkur hujjatlarni saqlayotgan shaxsdan yoki korxonaga, tashkilot, muassasaning vakilidan oladi. Hujjatlar olinganidan so'ng, ular sinchiklab o'rganib chiqilishi lozim va yuqorida sanab o'tilgan maqsadlardan kelib chiqib ulardan foydalaniladigani va foydalanilmaydigani alohida-alohida ajratib olinib, ish uchun keraksiz bo'lgan hujjatlar ularni topshirgan shaxsga qaytarib beriladi, kerakli hujjatlar esa tergovga qadar tekshiruvni maqsadini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Tergovga qadar tekshiruv davrida shaxslarning ko'rgan va eshitgan hodisalari tavsilotlari ish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan bo'lsa, o'sha shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olinishi lozim. Tushuntirish talab qilib olish jarayoni tushuntirish xati tuzish orqali rasmiylashtiriladi. Tushuntirish xatida qaysi organ rahbari nomiga tushuntirish olinayotganligi, kim tomonidan tushuntirish berilayotganligi, tavsilotlar batafsil tarzda bayon qilinishi, tushuntirishni qaysi organ mansabdor shaxsi olayotganligi va qaysi sanada tushuntirish olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim. Surishtiruv va dastlabki tergovdan farqli o'laroq, tergovga qadar tekshiruv bosqichida proses ishtirokchilarining huquqiy maqomi belgilanganmagan. Shu sababli, barcha proses ishtirokchilaridan Jinoyat kodeksining 240-moddasi bilan, ya'ni jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi bilan ogohlantirgan holda tushuntirish xati olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 27-bobi ushlab turish qoidalarini o'z ichiga olgan. Mazkur bob qoidalariga muvofiq, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsning jinoiy qilmishlariga chek qo'yish, qochib ketishining, dalillarni yo'q qilish va ularni yashirishining oldini olish maqsadida uni 48 soat muddatga ozodlikdan mahrum qilish mumkin. Bu tarzda ozodlikdan mahrum qilish protsessual majburlov choralaring ushlab turish

turiga mansubdir. Albatta, shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina ushlab turilishiga yo'l qo'yiladi:

- shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

M.M.Maxmudovning "International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education" jurnalida chop etilgan maqolada keltirishicha, ushlab turish maqsadlaridan biri shaxsning jinoiy faoliyatini oldini olish deb ko'rsatilgan¹. Biz bu fikr bilan hamfikr bo'la olmaymiz. Sababi shuki, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizdagi ushlab turishning qonuniy asoslari orasida hali sodir etilmagan jinoyatning oldini olish uchun shaxsni ushlab turish ko'zda tutilmagan, barcha asoslar jinoyat sodir qilib bo'linganidan so'ng yoki suiqasd bosqichidagina ushlab turishni nazarda tutadi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Tergovga qadar tekshiruv davomida o'tkazilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlaridan dastlabkisi shaxsiy tintuv va olib qo'yish tergov harakatidir. Mazkur bosqichda o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish faqatgina Jinoyat-protsessual kodeksining 162-moddasi ikkinchi qismida va 224-moddasi ikkinchi qismida belgilangan qoidalarga ko'ra amalga oshiriladi. Mazmunan olib qaraganda, keltirib o'tilgan har ikkala normaning ham mazmuni va qoidasi bir xil ma'noni va tartibni anglatadi. Faqatgina, ularning farqi shundaki, 162-moddaning birinchi qismida jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish asoslari va holatlari haqida gap ketganligi bois, ikkinchi qismida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi tomonidan ham jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar ushlab turish vaqtida shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkazilishi mumkinligi haqida so'z borgan. 224-moddaning ikkinchi qismida esa jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar, ya'ni tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxsni ushlab turish vaqtida shaxsiy tintuv va olib qo'yishni amalga oshirishga huquqi bor bo'lgan mansabdor shaxs sifatida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsidan tashqari surishtiruvchi, tergovchi, prokurorlar ham ko'zda tutilgan.

JPKning 162-moddasi ikkinchi qismida belgilangan tartibga muvofiq, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, uni shaxsiy tintuv qilishga va olib qo'yishni amalga oshirishga haqlidir. JPKning 224-moddasi ikkinchi qismida

¹ Maxmudov Muzaffar Maksud o'g'li / Ushlab turish majburlov chorasining protsessual tartibi / International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education / ARTICLES / 2022 / 218-221-bet

belgilangan tartibga muvofiq esa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi bilan bir qatorda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, uni shaxsiy tintuv qilishga yoki olib qo'yishni amalga oshirishga haqlidir.

Tergovga qadar tekshiruv davomida eng birinchilardan qilinadigan harakatlardan biri bu hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdir. Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlarni ko'pchiligini fosh qilishda va haqqoniy tergov qilinishida asosiy o'rinni hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati egallaydi. Qanday jinoyat sodir etilganligiga qarab, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda e'tiborimizni shu yo'nalishga jalb qilib, kelgusida ashyoviy dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan narsa va predmetlarni, izlarni qidirib topishimiz va ularni olishimiz darkor.

Masalan, jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq ariza va xabarlar kelib tushganida voqea joyiga yetib borgan surishtiruvchi, tergovchi, eng avvalo, voqea joyini o'rab olinishiga va ortiqcha harakatlarni cheklanishiga e'tiborni qaratishi lozim. So'ng esa, jinsiy zo'ravonlik qilingan joyni aniqlashtirib, u yerdan qon, so'lak, sperma dog'larini, soch tolalarini topib, ularni namunalari belgilangan turdagi qadoqlarga olishi lozim. Bu olingan namunalar va soch tolalari kelgusida sudga oid biologik, tibbiy ekspertizalar tayinlanishida muhim ahamiyatga ega. Agarda jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi ham voqea joyida bo'lsa, ularning ustidagi barcha kiyim-boshlarini (shu jumladan ich kiyimlari) ham olib qo'yishni tashkillashtirish lozim. Ular turli sabablarga ko'ra voqea joyidan ketib qolgan bo'lsa, ularni jinsiy zo'ravonlik vaqtidagi kiygan kiyimlarini aniqlashtirib, o'sha kiyim-boshlarini olishni tashkillashtirish lozim. E'tiborimizni kiyim-boshga qaratganimizni sababi shuki, kelgusida ular bo'yicha sudga oid trassologik, mikrotola va biologik ekspertizalar tayinlanishi mumkin. Jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining tirnoqlarini olish ham kelgusida sudga oid biologik ekspertiza o'tkazilganida ekspertning xulosasidan oqlovchi yoki qoralovchi dalil sifatida foydalana olishga imkon yaratadi.

Tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar haqida xabar kelib tushganda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda qon dog'larini, tan jarohati yetkazish predmetlarini qidirib topish va ularni olish lozim. Булар ҳам келгусида судга оид биологик, трассологик экспертизалар учун лозим. Bundan tashqari, voqea joyidagi saranjomlik holatiga ham e'tiborni qaratib, birma bir bayonnomada qayd etish lozim. Bu narsa surishtiruvchi va tergovchi uchun kelgusida protsess ishtirokchilarining ko'rsatuvlari qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida tasavvurga ega bo'lishida asqotadigan jihatdir.

Ekspertiza tayinlash tergov harakati to'g'risidagi tushunchani Jinoyat-protsessual kodeksining yigirma ikkinchi bobi normalari mazmunidan kelib chiqib ko'rib chiqamiz. 172-modda birinchi qismiga ko'ra, ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Qonunning mazkur normasiga sharh beradigan bo'lsak, tergovga qadar tekshiruv doirasida ma'lum bir shaxsning xatti-harakati yuzasidan ma'lumotlarni oydinlashtirib olish uchun yoki biror-bir holat bo'yicha aniq bir to'xtamga kelish uchun fanning bir tarmog'i bo'yicha bilimlar zarur bo'ladigan bo'lsa, mazkur fan tarmog'i mutaxassisi ish bo'yicha vujudga kelgan savollarimizga javob berishi uchun ekspertiza

tayinlaymiz, mazkur mutaxassis jinoyat protsessida ekspert maqomi bilan ishda qatnashadi. Ekspert esa o'zining maxsus bilimlaridan kelib chiqib tegishli savollarga javob beradi, tergovga qadar tekshiruvni olib borayotgan mansabdor shaxs ekspert xulosasidan kelib chiqib, ishning ma'lum bir holatiga yoki butun bir ishga huquqiy baho beradi.

172-modda birinchi qismining davomida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo'lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmasligi belgilab qo'yilgan. Mazkur normada shu narsa nazarda tutilganki, ish bo'yicha xolislik va betaraflik kabi jihatlari uyg'un holda qo'llanilib, yakuniy qaror adolatli bo'lishi uchun protsessning mazkur ishtirokchilari ekspertiza tekshiruv natijasiga hech qanday ta'sir o'tkaza olmasligi lozim, buning uchun esa, birinchi navbatda, norma nazarda tutilganidek ekspertiza o'tkazish huquqini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislariga berilishi mumkin emas.

Normaning yana bir talablaridan biri ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emasligi. Bu talab ekspert xulosasining ishonchli, aniq va ilmiy asosli ekanligini ta'minlab beruvchi omil hisoblanadi.

JPKning yigirma ikkinchi bobi talablari orasida ekspertiza tayinlash shart bo'lgan holatlar ham alohida norma sifatida shakllantirilib, 173-modda ichiga joylashtirilgan. Unga ko'ra:

- o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatining xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash uchun;
- jinsiy aloqada bo'lganlik, homiladorlik holatini va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini aniqlash uchun;
- jinoyatchi shaxs va jabrlanuvchining yoshini hujjatlarga ko'ra aniqlashning imkoni bo'lmasa;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ruhib holatini aniqlash maqsadida;
- jabrlanuvchi va guvohning ruhiy holatini aniqlash maqsadida;
- tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini aniqlash zarur bo'lganda;
- Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar va ularning turi mavjudligini aniqlash uchun;
- Pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini aniqlash maqsadida;
- Portlashlar, halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda.

Yuqoridagilardan tashqari, ish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashda ham, buning uchun maxsus bilimlar zarur bo'lsa, albatta, ekspertiza o'tkazilishi shart.

Tergovga qadar tekshiruv hujjatlari holatidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ekspertiza, qayta ekspertiza, komissiyaviy ekspertiza va kompleks ekspertizalar tayinlanishi mumkin. Ular qaysi holatda tayinlanishi batafsil Jinoyat-protsessual kodeksida yoritib o'tilgan. Bundan tashqari,

ekspertlar kimlarni orasidan bo‘lishi lozimligi ham yigirma ikkinchi bob normalarida qat’iy belgilab qo‘yilgan.

2016-yil 29-dekabr kuni “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-418-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga 22¹-bob kiritilgan². Mazkur bob “Taftish” deb nomlanib, jinoyat protsessida yangi institut hisoblanadi. Taftish - bu ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlarni tekshirilayotgan sub’ektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan olish mumkin bo‘lgan hollarda o‘tkaziladigan yangi tergov harakatidir³.

REFERENCES

1. Maxmudov Muzaffar Maksud o‘g‘li / Ushlab turish majburlov chorasining protsessual tartibi / International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education / ARTICLES / 2022 / 218-221-bet.
2. 2016-yil 29-dekabr kuni “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-418-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan // <https://lex.uz/docs/-111460>

² 2016-yil 29-dekabr kuni “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-418-son Qonuni

³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan // <https://lex.uz/docs/-111460>